



ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY

journal homepage:

<http://www.supportscience.uz/index.php/ojp/about>

CLASSIFICATION OF INTERROGATIVE SENTENCES IN SYNTAX AND THE POSITION OF FORMS EXPRESSING DOUBT AND HESITATION

Habiba Akramovna Ochilova

PhD Candidate at the Department of Linguistics

Karshi State University

ochilovahabiba827@gmail.com

Karshi, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: interrogative sentences, doubtful/hesitative interrogative sentences, general question, special question, alternative question, tag question, grammatical features, communicative functions, semantic uncertainty, probability/tentativeness, morphology, syntax (sentence structure), linguistics.

Received: 05.12.25

Accepted: 06.12.25

Published: 07.12.25

Abstract: The article examines the classification of interrogative sentences in linguistics, their various forms, and particularly the position of doubtful (hesitative) interrogative sentences among them. Interrogative sentences are divided into general, special, alternative, and confirmatory types, with a detailed analysis of the linguistic features and communicative functions of each. Special attention is given to doubtful interrogative sentences, highlighting their role in expressing semantic uncertainty, doubt, and probability. The morphological and syntactic structures of these sentences are described in detail, along with the distinctive characteristics that set them apart from other types of interrogatives. Using examples from various languages, the study explores the usage of doubtful interrogative sentences, thereby clarifying their significance in general linguistic theory.

SINTAKSISDA SAVOL JUMLASINING TURLARGA BO'LINISHI VA SHUBHAGUMON AKS ETTIRUVCHI SHAKLLARNING MAVQE'I

Habiba Akramovna Ochilova

Lingvistika kafedrası tayanch doktoranti

Qarshi davlat universiteti,

ochilovahabiba827@gmail.com

Qarshi, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit soʻzlar: savol jumlar, shubha-gumonli soʻroq gaplar, umumiy soʻroq gap, maxsus soʻroq gap, tanlov soʻroq gap, tasdiq soʻroq gap, grammatik xususiyatlar, muloqot vazifalari, maʼno noaniqligi, ehtimollik, shakldoshlik, gap tuzilishi, lingvistika.

Annotatsiya: Maqolada lingvistikada savol jumlarining tasnifi va ularning xilma-xil shakllari, shu jumladan, shubhali savol jumlarining mavqei tahlil etilgan. Savol jumalari umumiy, maxsus, muqobil va tasdiqlovchi turlariga boʻlinib, har birining tilshunoslik xususiyatlari hamda kommunikativ vazifalari yoritib berildi. Maqolada shubhali savol jumalari alohida eʼtiborga olinib, ularning maʼno noaniqligini, shubha va ehtimollikni bildirishdagi roli koʻrib chiqildi. Shubhali savol jumlarining morfologik va sintaktik tuzilishi, shuningdek, ularni boshqa savol jumla turlaridan ajratib turuvchi oʻziga xos jihatlari haqida batafsil maʼlumot taqdim etildi. Maqola jarayonida turli tillardan misollar asosida shubhali savol jumlarining qoʻllanilishi oʻrganilib, bu ularning umumiy tilshunoslikdagi oʻrnini belgilashga yordam beradi.

КЛАССИФИКАЦИЯ ВОПРОСИТЕЛЬНЫХ ПРЕДЛОЖЕНИЙ В СИНТАКСИСЕ И МЕСТО ФОРМ, ВЫРАЖАЮЩИХ СОМНЕНИЕ И ПРЕДПОЛОЖЕНИЕ

Хабиба Акрамовна Очилова

Аспирант кафедры лингвистики

Кашикардинский государственный университет

ochilovahabiba827@gmail.com

Кариш, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: вопросительные предложения, вопросительные предложения с оттенком сомнения, общий вопрос (общий вопросительное предложение), специальный вопрос (специальное вопросительное предложение), альтернативный вопрос (дизъюнктивный вопрос), подтверждающий вопрос (вопрос с тег-вопросом, вопрос к высказыванию), грамматические особенности, коммуникативные функции, смысловая неопределённость, предположительность (вероятность), морфология, синтаксис (структура предложения), лингвистика.

Аннотация: В статье анализируется классификация вопросительных предложений в лингвистике, их разнообразные формы, а также место среди них сомнительных (сомнительное) вопросительных предложений. Вопросительные предложения делятся на общие, специальные, альтернативные и подтверждающие; подробно рассмотрены лингвистические особенности и коммуникативные функции каждого типа. Особое внимание уделено сомнительным вопросительным предложениям: раскрыта их роль в выражении смысловой неопределённости, сомнения и предположительности. Подробно описаны морфологические и синтаксические формы таких предложений, а также признаки, отличающие их от других видов вопросительных конструкций. В работе на

примерах из разных языков изучено
употребление сомнительных
вопросительных предложений, что
позволяет определить их место в общей
теории языкознания.

Kirish. Lingvistikada savol jumalari alohida o‘rin tutadi, chunki ular nutqiy muloqotning uzviy va ajralmas qismidir. Savol jumalari orqali bilim izlash va ma’lumot almashish jarayoni amalga oshiriladi; ular yordamida suhbatdoshlar noma’lum, noaniq yoki tushunarsiz jihatlarni ochib berish va aniqlik kiritish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Suhbat jarayonida savol jumalari muloqotni faol davom ettirishga, suhbatdoshning pozitsiyasi va fikrlarini aniqlashga hamda o‘zaro anglashuvni chuqurlashtirishga xizmat qiladi. Tilning tuzilishi nuqtai nazaridan savol jumalari sintaktik qurilish, intonatsiya, semantik ma’no va pragmatik vazifalarning murakkab o‘zaro bog‘lanishini tadqiq qilishda asosiy tadqiqot ob’ekti sifatida qaraladi. Ular orqali tilning qanday ishlashi va turli funksiyalarni qanday bajarishi tahlil qilinadi. Funktsional jihatdan so‘roq gaplar nafaqat ma’lumot olish uchun, balki suhbatdoshni harakatga keltirish, e’tiborini jalb qilish va suhbatni boshqarish uchun ham qo‘llaniladi. So‘roq gaplar maqsadga yo‘naltirilgan bo‘lib, ular orqali savol beruvchi aniq bir maqsadni ko‘zlaydi, masalan, tasdiq yoki inkor javob olish, sabablarni aniqlash, imkoniyatlarni tekshirish va hokazo. Savol jumalari turli ijtimoiy-madaniy muhitlarda o‘ziga xos tarzda qo‘llaniladi va idrok etiladi; ularning ishlatilishi hamda talqin qilinishi madaniyatlar o‘rtasida sezilarli farqlarga ega bo‘lishi mumkin. Aynan shu sababli lingvistikada savol jumalarini tadqiq qilish tilning umumiy nazariyasi uchun doimiy ravishda dolzarb va muhim ahamiyat kasb etadi. Ular nutqiy muloqot, o‘zaro anglashuv va bilim olish jarayonlarining uzviy tarkibiy qismi sifatida tilshunoslikning ko‘plab yo‘nalishlarida faol o‘rganiladi va qo‘llaniladi.

Adabiyotlar tahlili va metodlari. Tilshunoslikda so‘roq gaplarni tasniflash masalalari yuzasidan ilmiy izlanish olib borgan bir qator g‘arb, rus va o‘zbek tilshunos olimlari mavjud bo‘lib, eng avvalo generativ grammatikani rivojlantirgan va so‘roq gaplarning strukturasini o‘rganishga katta hissa qo‘shgan ingliz tilshunosi Noam Chomskiy g‘oyalari kommunikativ yondashuv va savol berish jarayonidagi ma’no va kontekstni o‘rganish bilan tanilgan Herbert Pol Grays qarashlaridan farq qiladi. U savol berish va javob berish jarayonidagi pragmatik jihatlarni alohida ta’kidlaydi. Noam Chomskiyning fikriga ko‘ra, “So‘roq gaplar sintaktik tuzilmalarning universal xususiyatlarini aniqlashda muhim ahamiyatga ega”. [2]

Chomskiy transformatsion grammatika nazariyasida so‘roq gaplarni hosil qilish uchun maxsus qoidalarni kiritgan. Unga ko‘ra, “Har qanday so‘roq gap asosiy (yashirin) tuzilma bo‘lib,

u oddiy xabar gapning transformatsiyasidan hosil qilinadi"[2]. "Masalan, ingliz tilidagi savollar "wh-movement" va "auxiliary inversion" kabi jarayonlar orqali hosil bo'ladi:

1. Wh-movement: So'roq gaplarda savol so'zi (who, what, where va boshqalar) gap boshiga ko'chiriladi.

2. Auxiliary inversion: Fe'l yordamchisi sub'yekt bilan joyini almashtiradi, masalan, "He is coming" – "Is he coming?"[2]

Chomskiyning ta'kidlashicha, "So'roq gaplar tilning chuqur va yuzaki tuzilmalari o'rtasidagi farqlarni tushinishda muhim o'rin tutadi"[2]. U so'roq gaplarni tahlil qilish orqali inson miyasining tilni qay tarzda qayta ishlashini va grammatik tuzilmalarni qanday shakllantirishini o'rganishga katta hissa qo'shgan.

Shuningdek, Chomskiyning universal grammatika nazariyasiga ko'ra, "Barcha tillarda so'roq gaplarning hosil bo'lishida ma'lum umumiy qoidalar mavjud, bu esa insonning tabiiy tilni o'rganish qobiliyatini tushuntirishga yordam beradi"[2].

Herbert Pol Grays esa tilshunoslikda so'roq gaplarning o'rni haqida muloqot nazariyasi doirasida fikr yuritgan. Grays asosan ma'no, muloqot va pragmatika bilan shug'ullangan bo'lsa-da, uning kooperativ prinsip va implikatura tushunchalari so'roq gaplarning tahliliga ham tatbiq qilinishi mumkin[1].

Grays muloqotda odamlar kooperativ prinsipga rioya qilgan holda suhbatda mantiqan harakat qilishlarini taklif qiladi. Uning fikricha: "Ushbu prinsip to'rtta maksimal qoidani o'z ichiga oladi: miqdor, sifat, relevans va uslub"[1]. "So'roq gaplar bu qoidalar orqali ma'lumot olish yoki muloqotni rivojlantirish vositasi sifatida ishlatiladi:

1. Miqdor (Quantity): So'roq gaplar suhbatdoshdan kerakli miqdorda ma'lumot talab qilishda qo'llaniladi. Masalan, "Where are you going" "Qayerga ketmoqchisan?" savoli muayyan va yetarli javob kutadi.

2. Sifat (Quality): So'roq gaplar yordamida so'rovchi aniq va to'g'ri ma'lumot olishga intiladi. Bu qoidaga ko'ra, javob haqiqatga mos bo'lishi kerak. "How to get to the station?" "Stansiyaga qanday boriladi?" (Go to the right and turn the left. To'g'riga yurib, chapga buriling.)

3. Relevans (Relation): So'roq gaplar muloqot mazmuniga muvofiq bo'lishi kerak. Misol uchun, "Why were you late?" "Nega kechikding?" savoli suhbatning dolzarb mavzusiga muvofiq keladi.

4. Uslub (Manner): So'roq gaplar aniq, tushunarli va qisqa shaklda bo'lishi kerak."[1]

Grays so'roq gaplar orqali implikatura (yashirin ma'no) hosil bo'lishini ham tushuntiradi. "So'roq gapning yuzaki mazmunidan tashqari, u orqali yashirin ma'no ham yetkazilishi mumkin"[1]. Masalan, "What should be done in this situation?" "Bu vaziyatda nima qilish kerak?" savoli, aslida, yo'l-yo'riq yoki maslahat so'rashni anglatishi mumkin.

Shunday qilib, Grays so'roq gaplarning pragmatik jihatlarini, ya'ni ular yordamida muloqotda qanday ma'lumot olish va berish mumkinligini tushuntirishda ahamiyatli shaxs hisoblanadi. Uning kooperativ prinsiplari va implikatura nazariyasi so'roq gaplarni tahlil qilishda muhim ahamiyatga ega.[1]

A.A.Zalevskaya so'roq gaplarning tuzilishini, funksiyasini, ularning sintaktik va pragmatik xususiyatlarini tahlil qilgan. Zalevskaya tilni o'rganish va qo'llash jarayonida so'roq gaplar muhim rol o'ynashini ta'kidlaydi. Uning fikriga ko'ra, "So'roq gaplar yangi ma'lumot olish va mavjud bilimlarni kengaytirish vositasi sifatida xizmat qiladi, muloqot jarayonida suhbatdoshlar o'rtasida axborot almashish va tushunishni ta'minlaydi. So'roq gaplar til o'rganishda o'quvchilarning qiziqishini oshirish va ularning faol ishtirokini ta'minlashda muhimdir"[4]. Uning talqiniga ko'ra, savol yangi ma'lumot olish uchun berilishi mumkin:

-Как называется эта книга? Bu kitobning nomi nima?

Muloqot jarayonida suhbatdoshlarning rejalari haqida axborot almashishni ta'minlashi mumkin:

-Ты пойдешь с нами в кино? Sen biz bilan kinoga borasanmi?

Til o'rganish jarayonida o'quvchilarning bilimini oshirish va ularning tilni faol o'rganishiga yordam beradigan vaziyatlarda qo'llanilishi mumkin:

-Как сказать это слово по-русски? Bu so'zni rus tilida qanday aytish mumkin?

Bu misollar orqali so'roq gaplarning A.A. Zalevskaya tomonidan ta'kidlangan funksiyalarini ko'rsatish mumkin.

Shunday qilib, A.A.Zalevskayaning tadqiqotlari so'roq gaplarning til o'rganish va muloqotdagi ahamiyatini yoritadi [4].

So'roq gaplar tildagi muhim kommunikativ vositalardan biri bo'lib, ular yordamida savol berish, aniqlik kiritish, gumon ifodalash va boshqa muloqot ehtiyojlari amalga oshiriladi. So'roq gaplar odatda quyidagi turlarga bo'linadi:

Aniq (real) so'roq gaplar. Bu turdagi gaplarda aniq javob talab qilinadi. Javoblar "ha" yoki "yo'q" shaklida bo'lishi mumkin.

- Sen kecha kelganmisan?

Noaniq (irreal) so'roq gaplar. Bu turdagi savollarga javob olish oson emas, aniqlashtiruvchi ma'lumotlar talab qilinadi.

- Hammasi tasodif bo'lishi mumkinmi?

Ritorik so'roq gaplar. Bu turdagi gaplarda javob talab qilinmaydi, aksincha, tinglovchiga ta'sir o'tkazish yoki fikrni kuchaytirishga e'tibor qaratiladi.

- Nahotki bu ishni o'zing uddalay olmasang?

Gumonli soʻroq gaplar. Gumonli soʻroq gaplar shubha yoki ehtimollikni ifodalashda qoʻllaniladi [6]. Bu gaplarda maʼlum bir holatning roʻy berishi mumkinligi, lekin aniq emasligi anglashiladi:

- U bugun kelarmikan?

Sintaktik xususiyatlariga keladigan boʻlsak, gumonli soʻroq gaplar koʻpincha “ekan”, “mikin”, “boʻlsa kerak”, “-dir”, “shekilli”, “balki” kabi qoʻshimcha yoki yordamchi soʻzlar bilan ifodalanadi. Bu soʻzlar kontekstda shubha, gumon xususiyatini kuchaytiradi. Gumonli soʻroq gaplar muloqot jarayonida tinglovchi bilan bevosita yoki bilvosita aloqa oʻrnatishda foydalaniladi. Bu turdagi gaplar koʻpincha noaniq yoki taxminiy javoblarni talab qiladi [5].

Gumonli soʻroq gaplar tilshunoslikda muloqotning noaniqlik elementlarini tadqiq qilishda juda ahamiyatlidir. Ular tildagi gumon, taxmin va shubha ifodalarining ifodalanish shakllarini oʻrganishda muhim omil sanaladi. Shuningdek, gumonli soʻroq gaplar tildagi polisemantiklik, muloqot konteksti va intonatsiya kabi omillar bilan chambarchas bogʻliq [3].

Tahlil va natijalar. Ushbu tadqiqotda soʻroq gaplarning oʻziga xos xususiyatlari va tasniflanishi koʻrib chiqildi, xususan, gumonli soʻroq gaplarni hosil qiluvchi vositalarga alohida urgʻu berib oʻtildi. Gumonli soʻroq gaplar, birinchi navbatda, oddiy soʻroq gaplardan ularning maqsadi va maʼno-mazmuniga koʻra farqlanadi. Mazkur gaplar soʻroq shaklida ifodalanib, aslida maʼlum bir gumon, taxmin yoki qoniqmaslikni ifodalash uchun qoʻllaniladi. Tahlil davomida gumonli soʻroq gaplar quyidagi mezonlar asosida tasniflandi:

1. Funktsional maqsadi: Gumonli soʻroq gaplar, odatda, xabarni aniqlashtirish yoki suhbatdoshni biror narsaga eʼtiborini qaratish uchun qoʻllaniladi. Bu gaplar oʻz ichiga gumon yoki taxminni olib, xabar beruvchi maqsadga xizmat qiladi.

2. Sintaktik tuzilishi: Gumonli soʻroq gaplarning sintaktik jihatdan oddiy soʻroq gaplardan farqi shundaki, bu gaplarda koʻpincha boʻlaklarning joylashuvi va urgʻu muhim oʻrin tutadi. Ayniqsa, soʻroq olmoshlari va yuklamalarning oʻrni gumonli maʼno yaratishda katta rol oʻynaydi.

3. Emotsional-ekspressivlikni ifodalashi: Ushbu turdagi gaplar suhbatda, asosan, emotsional holatni aks ettiradi. Ular orqali gumon, shubha, ishonchsizlik yoki ajablanish kabi his-tuygʻular ifodalanadi.

Xulosa va takliflar. Soʻroq gaplar tilshunoslikda muhim ahamiyatga ega, chunki ular nafaqat tilning grammatik jihatlarini, balki kommunikativ funktsiyalarini ham oʻrganishga yordam beradi. Soʻroq gaplarning turlari va ularni tasniflash, shuningdek, turli xil til tizimlarida ularning qoʻllanilishi oʻrganilganda, tilshunoslikka yangi yondashuvlarni kiritish imkoniyatlarini ochadi.

Tilshunoslar va tadqiqotchilar tomonidan soʻroq gaplarning koʻplab kontekstlarda, jumladan, jurnalistika, adabiyot, psixologik tahlil va madaniyatshunoslikda qay tarzda qoʻllanilishini chuqurroq tahlil qilishlari lozim. Bundan tashqari, soʻroq gaplar turli tillar va

madaniyatlarda qanday shakllanib, qanday farqlar bilan namoyon bo'lishini o'rganish, jahon tilshunosligiga katta hissa qo'shishi mumkin. Shuningdek, so'roq gaplarni o'rganishda zamonaviy texnologiyalarni, masalan, nutq tahlili va sun'iy intellektni qo'llash, yangi tahlil metodologiyalarini yaratish va ularni amaliyotda qo'llash uchun keng imkoniyatlar yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Grice, Herbert Paul. *Studies in the Way of Words*. Cambridge, MA: Harvard University Press, 1989. Accessed January 10, 2025.
2. Chomsky, Noam. *Syntactic Structures*. The Hague: Mouton, 1957. Second Edition With an Introduction by David W. Lightfoot. Mouton de Gruyter Berlin. New York 2002. P.34-37
3. Стрельцов А.А. О типах вопросительных предложений Вестник пнипу. Проблемы языкознания и педагогики № 3 2016.с.38-51
4. Залевская, А. А. Вопросы синтаксиса и семантики в современном русском языке. Москва: Наука, 1994.
5. G'ulomov A.G' va Asqarova M.A. Hozirgi o'zbek adabiy tili. (Sintaksis) T., "O'qituvchi", 1965.316 bet. 61-67-betlar.
6. Ўзбек тили грамматикаси. II том. Т., «Фан», 1976. (А.С.Пушкин номидаги Тил ва адабиёт ин-ти). II т. Синтаксис. [Масъул муҳаррирлар: Ғ. А. Абдурахмонов ва бошқ.]. 1976. 560 б. Грамматика узбекского языка, т. II. Синтаксис.
7. https://tallinzen.net/media/readings/chomsky_syntactic_structures.pdf
8. <https://www.hup.harvard.edu/catalog.php?isbn=9780674544134>
9. <https://www.russiansyntax.ru/>.